# YEVROPA VA OSIYO MODASI HAMOHANGLIGIDA YARATILGAN MILLIY LIBOSLAR NAMUNALARINI ZAMONAVIY CAD/CAM TIZIMLARIDA KAMHARJ USULDA ISHLAB CHIQARISH ULUBI

**Nargiza Nabijanova Nasimjanovna**
*Namangan To‘qimachilik sanoati instituti “Yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalash va texnologiyasi” kafedrasi t.f.d., professor*
***E-mail***: *Nargiza_nabidjanova@gmail.com*
*Tel: +998936710114*
**Ahmedova Zaynabxon Komilxon qizi**
*Namangan To‘qimachilik sanoati instituti (1968-2024 NamMTI) “Yengil sanoat mahsulotlari jihozlari va texnologiyasi” yo‘nalishi 2021-2023-yil magistratura bitiruvchisi.*
***E-mail***: *Akhmedovazeynebkhan@gmail.com*
*Tel: +998900509597*

**Annotatsiya:** *Bu maqolada tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayollar kiyimlarini zamonaviy CAD/CAM tizimlarida loyihalash va ishlab chiqarish Respublikamizda talab darajasida yo‘lga qo‘yilmagan. Shu sababli kiyim sifati va konstruktsiyasini yaxshilash, tabiiy va mavsumiy matolardan unumli foydalanib, maqbul konstruktsiyasini zamonaviy loyihalash dasturlari asosida qurish. Yevropa zamonaviy ayollar liboslarida sharq milliyligini hamohang tarzda aks ettirish, ya’ni milliy matolar assortimentidan bezak sifatida foydalanib, tobora kamayib borayotgan zardo‘zlik naqshlarini yana modaga olib kirish va milliy naqshinkor nusxalardan keng foydalanish ko’zda tutilgan*

**Kalit so’zlar**: *ayollar kiyimlari, zamonaviylik, moda, sharq, g‘arb, avtomatlashtirilgan tizim, konstruktsiya, tabiiy, mato, CAD/CAM.*

***Аннотация:*** *Проведенный в статье анализ показывает, что в нашей республике проектирование и производство женской одежды в современных CAD/CAM-системах не налажено на должном уровне. В связи с этим необходимо улучшить качество и дизайн одежды, эффективно использовать натуральные и сезонные ткани, а также построить оптимальный дизайн на основе современных программ проектирования. Предполагается гармонично отразить восточную национальность в современной европейской женской одежде, то есть использовать ассортимент национальных тканей в качестве декора, вернуть в моду выходящие из моды узоры золотого шитья, широко использовать национальные вышитые копии.*

***Ключевые слова:*** *женская одежда, современность, мода, восток, запад, автоматизированная система, строительство, натуральный, ткань, CAD/CAM .*

***Abstract:*** *The analysis in this article shows that the design and production of women's clothing in modern CAD/CAM systems has not been established in our Republic at the required level. Therefore, it is necessary to improve the quality and design of clothing, effectively use natural and seasonal fabrics, and build an optimal design based on modern design programs. It is envisaged to harmoniously reflect the oriental nationality in modern European women's clothing, that is, to use the assortment of national fabrics as decoration, to bring back the increasingly declining gold embroidery patterns into fashion, and to widely use national embroidered copies.*

***Key words:*** *women's clothing, modernity, fashion, east, west, automated system, construction, natural, fabric, CAD/CAM.*

Ma’lumki, zamonaviy CAD/CAM tizimlari va ularning ishlab chiqarishdagi samaradorligi hozirgi kunda katta ahamiyat kasb etadi. 1985-2002-yillarda Germaniya va Ruminiyada ishlab chiqilgan “ASSYST CAD” va “Gemini CAD” ALT tizimlari turli quvvatdagi ishlab chiqarish korxona talablarini qondiradi.

Konstruksiyalash, modellashtirish, gradatsiyalash, ekonom joylashtirish, chop etishga berishni boshqarish, ma’lumotlarni konvertatsiya qilish, andozalarni raqamlash modullari va asosiy iqtisodiy samaradorlik koʻrsatkichi aniqligiga erishish mumkinligi koʻrib chiqamiz. Kiyimlarni loyihalash boʻyicha avtomatlashtirilgan tizimlar bizning Respublikamizga 1990-2000 yillarda kirib keldi. Ular shu sohadagi Investronica (Ispaniya) va Gerber(AQSH) kabi yetakchi

xorijiy firmalarning qimmatbaho tizimlari edi. Bu oʻz navbatida boshqa kompaniyalarning yangi avtomatlashtirilgan tizimlarini yaratish boʻyicha ishlashi uchun zarur turtki boʻldi. Bichuv qurilmalaridan soʻng, kompyuterda andazalarni koʻpaytirish (gradatsiya) va joylashmasini tuzish boʻyicha dasturiy ta’minot yaratildi.

Lekin bichish qurilmalari va servis xizmati nihoyatda qimmat boʻlgani uchun uni mahalliy tikuv korxonalariga olib kelish va keng tarqatish muammoli masala edi. Bu muammolar mamlakatimizda davlat tomonidan yengil sanoat korxonalarida eksportga moʻljallangan mahsulot chiqarish dasturlari ishlab chiqilganidan keyin hal qilina boshladi. Yengil sanoat korxonalariga ilgʻor xorijiy texnologiyalar kirib keldi. Bular orasida CAD/CAM tizimlari ham bor.

Hozirda tikuvchilik sanoati uchun bozorda turli firmalarning avtomatlashtirish tizimlari taklif etilgan. Ular oʻzaro interfeys xususiyati, uning qulayligi, loyihalash ob’ektini tasvirlash va ma’lumotlarni saqlash usuli, funksional imkoniyatlari bilan bir-biridan farqlanadi: «Assol», «Gratsiya», «Relikt» (Rossiya), Germaniyaning «Assyst», «Grafis» (Germaniya), GIGMobil (Belgiya), InvestronicaSistemas(Ispaniya), LectraSystems, Pantotus (Fransiya) va boshqalar.

1-rasm. Ayollar beretkasining GEMINI CAD dasturidagi andaza chizmasi







sarmoya talab qiladi va kichik korxonalar uchun “AUTO CAD” va “COREL DRAW” vektorli va matematik aniqlik ko’rsatkichiga ega dasturlarini (kesmalar, yoylar, aylanalar, to‘g‘ri to‘rtburchak va h.k funksiyalar) bepul ishlovchi versiyaligi uchun taklif etiladi. Biz bu dasturlarni yirik va ko‘p tarmoqli korxonalarga kiyim ishlab chiqarish uchun g‘arb milliy bosh kiyimi - beretka konstruktsiyasi misolida taklif etamiz (1,2-rasmlar).

2-rasm. Bosh kiyimning ASSYST CAD dasturidagi chizma hisoblari

Yengil sanoat mahsulotlari uchun kompyuter yordamida loyihalash (sapr) tizimlarini joriy etishning dolzarbligi model o‘zgarishining yuqori dinamikasini ta’minlash, dizayn ishlanmalarining hajmi va murakkabligini oshirish zarurati bilan bog‘liq holda jarayonning sezilarli murakkablashishi bilan bog‘liqligi M.T. Xodjayevaning “Разработка метода

автоматизированного проектирования форм головных уборов из натурального меха” dissertatsiyasida asoslangan.

Bir necha adabiyotlar o‘rganib chiqilganida, ayollar bosh kiyimlari yangi konstruktsiyasi va hozir yurtimizda ishlab chiqarish korxonalarida bu bosh kiyimning ishlab chiqarish koeffitsiyenti chet davlatlariga nisbatan bir necha barobar pastligi hisobga olinib, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalarda ayollar bosh kiyimini ishlab chiqarishga tatbiq etish va unda yevropa milliy bosh kiyimi bilan sharq milliy matolari, zardo‘zlik naqshlari hamohang tarzda aks ettirilishi xorijlik mehmonlarni ham jalb etishini ta’kidlab o‘tamiz (3-5-rasmlar).

3-4-5-rasmlar. Yevropa uslubidagi liboslarning milliy namoyishlari

**Xulosa**

Ayollar libosi uchun zamonaviy moda yo‘nalishi, silueti, bichimi va matolar assortimenti shakllarini o‘rganib chiqilgan. Ayollar kiyimi assortimenti, kiyimning shakl



saqlash xossalari va ularni o‘rganish usullarini tahlili, materiallarining fizik-mehanik va ekspluatatsion xususiyatlari o‘rganilib zamonaviy libos uchun materiallarni sifat va sertifikatlashtirish laboratoriyasida matolarni fizik-mexanik xossalari o‘rganilgan. Kiyimlarning sifat ko‘rsatkichlari ichida eng ahamiyatlisi ergonomik ko‘rsatkichlardir, ayniqsa issiq saqlovchanligini, havo o’tkazuvchanligini, terni shimish xususiyatliligini ta’minlaydigan gigienik ko‘rsatkichlardir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-sentabrdagi “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4453-sonli qarori.

**2.** Akhmedova Z.K., Salokhiddinova M.N.“Development of multifunctional clothing using GEMINI CAD program”. Resource-saving technologies of apparel, textile & food industry - international conference.17.10.2021.96-97-b.

**3.** Ahmedova Z.K., Hojiyev A.A. "Bosh kiyimlar tarixi va ayollar beretkasi".Tikuv-trikotaj sanoatida innovatsion texnologiyalar, ishlab chiqarishdagi muammo, tahlil va sohani rivojlanish istiqbollari – xalqaro ilmiy amaliy konferensiya. NamMTI. 07.10.2022.

**4.** Ahmedova Z.K., Hojiyev A.A. "Ayollar bosh kiyimlari tahlili asosida modada beretka". Образование и наука в XXI веке.16.11.2022.

**5.** Bosh kiyimlar va aksessuarlar. 2006-2021 y.

**6.** Al Akkad M. Ayman. "Fotosuratlardan yuzning uch o'lchovli modelini tahlil qilish va qurish usullarini ishlab chiqish va tadqiq qilish": dis. ... Kand. Texnologiya. Fanlar. - Izhevsk, 2004. - 131 p.

**7.** E-mail – mail@vgik.info

8. E-mail charkin @ peterstar.ru

9. Www.tkanchik.ru

10. https://daryo.uz/2020/12/17/yuz-tuzilishiga-qarab-bosh-kiyim-tanlashni-o'rganamiz-foto/